



## **Oilani birlashtirish yoki nikoh tuzib, Germaniyada doimiy qolish uchun nemis tili bo'yicha oddiy bilimlarni tasdiqlash haqida eslatma**

- Turmush o'rtog'ingizning oldiga Germaniyaga ketmoqchimisiz?
- Yoki turmush o'rtog'ingiz bilan birga Germaniyaga ketmoqchimisiz?
- Yoki Germaniyaga nikohdan o'tish va turmush o'rtog'ingiz bilan birga yashash uchun ketmoqchimisiz?

Bunday xollarda Siz Germaniyaga kirishdan avval nemis tili bo'yicha oddiy bilimga ega ekaningizni tasdiqlashingiz lozim. Bu orqali Siz Germaniyada boshidanoq oddiy darajada muloqotga kirisha olishingiz isbotlanishi kerak.

### **Nemis tili bo'yicha oddiy bilimlar nima?**

Nemis tili bo'yicha oddiy bilimlar bu tillar bo'yicha umumiyevropa boshlang'inch ma'lumotlarning A1 darajasidagi bilimlardir. Bunga Sizning tanish, har kunlik ifodalarni va eng oddiy gaplarni tushunishingiz va ularni qo'llay bilishingiz kiradi (masalan yo'lni so'rash, xarid qilish va xokazo). Siz o'zingiz va boshqalarni tanishtira olishingiz, o'zingiz haqingizda savollar berishingiz va javob bera olishingiz lozim. Masalan qayerda yashaysiz yoki kimlarni taniysiz. Albatta bunda hamsuhbatingiz tushunarli gapirishi va Sizga yordam berishga tayyor bo'lishi kerak. Siz shuningdek nemis tilida bir oz yoza olishingiz ham lozim, masalan, idoralar formulariga familiyangiz, manzilingiz, fuqarolingiz va hokazolarni kirita olishingiz kerak.

### **Nemis tili bo'yicha oddiy bilimlarni qanday qilib tasdiqlash mumkin?**

Til bo'yicha bilimlaringizni Germaniyaga kirishdan avval, qoidaga muvofiq oilani birlashtirish yoki nikoh tuzib, doimiy yashash uchun Germaniya elchixonasida vizaga ariza topshirayotganingizda tasdiqlashingiz lozim. Buning uchun Siz arizangizga ALTE (Association of Language Testers in Europe) standartiga muvofiq berilgan sertifikatni ilova qilishingiz lozim.

### **Bu xozirda quyidagi til sertifikatlariga taaluqli:**

Goethe-Instituts e.V ning "Start Deutsch 1" sertifikati

Goethe-Instituts e.V ning "TestDaF" sertifikati (til bilim darajasini tekshirish faqat "B2"GER darajasidan boshlab).

**E'tibor bering: boshqa tashkilotlarning til sertifikatlari tan olinmaydi. Yuqorida aytib o'tilgan sertifikatlar O'zbekistonda olinishi mumkin.**



Германия Федератив Республикаси  
Элчихонаси  
Тошкент

Gyote institutlar Germaniyaning xorijdagi madaniyat muassasalari xisoblanadi. Ular til kurslari va til bo'yicha imtixon topshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. "Start Deutch 1" imtixonini Gyote institutning o'zida olinishi mumkin. Ma'lumotlarni Gyote institutning internetdagi <http://www.goethe.de/ins/uz/de/index.html> web sahifasidan yoki institutning o'zidan olishingiz mumkin.

### Istisnolar bormi?

Istisnolar faqat quyidagi xolatlarda bo'lishi mumkin:

- Sizning nemis tili bo'yicha bilimingiz aniq, ya'ni viza bo'limida ariza topshirayotganingizdagi suhbatdayoq va hech qanday ikkilanishsiz buni isbotlasangiz. Shunga qaramay ikkilanish yuzaga kelsa, til sertifikatini talab etilishi mumkin.
- Siz voyaga yetmagan, Germaniya fuqarosi bo'lgan farzandingiz bilan oila birlashuvini amalga oshirmoqchisiz yoki u bilan birga Germaniyaga ketmoqchisiz yoki tug'ilganida Germaniya fuqaroligini oladigan bola bilan xomiladorsiz
- Turmush o'rtog'ingiz Germaniyada bo'lish bo'yicha qonunning 19a bandi bilan Yevropa Ittifoqining moviy karta (Blaue Karte EU gem.§19a AufenthG) sohibi bo'lsa yoki uni tez fursatda qo'lga kiritsa
- Siz yoki turmush o'rtog'ingiz/qallig'ingiz Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat (**Germaniyadan tashqari!**)lardan birining fuqarosi bo'lsangiz
- Siz jismoniy, ruhiy yoki psixologik kasallik yoki nogironlik tufayli nemis tili bo'yicha bilim darajangizni tasdiqlay olmasangiz. Arizaga bunga taaluqli hujjatlar ilova qilinishi lozim. Zarur xollarda elchixonaning mintaqaviy shifokoriga uchrashish lozim. Savodsizlik, keksalik, xomiladorlik, bola tarbiyasi va til maktabidan yiroqda yashash (A1 darajasida boshlang'ich bilimni aynan til maktabida olish majburiy emas) umumiy olib qaralganda nemis tilini o'rganish imkoniyati yo'qligiga asos bo'lmaydi
- Noodatiy xolat: agar turmush o'rtog'ingiz Germaniya fuqarosi bo'lsa va Siz bir yildan beri jiddiy urinishlarga qaramay til bo'yicha kerakli sertifikatni qo'lga kirita olmayotgan bo'lsangiz. Sizning tilni o'rganish bo'yicha jiddiy urinishlaringiz asosli dalillar (masalan kursda ishtirok etish, imtihon natijalari) orqali isbotlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turmush o'rtog' sifatida yashashga ruxsatnoma olish uchun kechi bilan Germaniyaga kirgandan so'ng til bo'yicha bilimga ega bo'lish lozim. Bunday istisnoga yo'l qo'yiladimi yoki yo'qmi ish jarayonida elchixona va xorijliklar masalalari bo'yicha idora o'rtasida hal qilinadi.